# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## 2023- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi,** ***mlrd. so'm***

**5 258,6**

**YAHM o'sish sur'ati**

**103,0 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**121,2 %**



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-martida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 5 258,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-marti bilan taqqoslagan-da 3,0 ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022 -yilning yanvar-martidagi narxlariga nisbatan 121,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,6 % ga yetdi.

## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2022- yil*** | ***2023 yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **4 213,3** | **5 258,6** | **103,0** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 4 083,4 | 5 035,0 | 102,9 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 129,9 | 223,6 | 105,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **4 083,4** | **5 035,0** | **102,9** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **1 332,9** | **1 629,9** | **102,6** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **972,0** | **1 331,2** | **103,1** |
| sanoat | 703,7 | 1 045,1 | 104,0 |
| qurilish | 268,3 | 286,1 | 100,6 |
| **xizmatlar** | **1 778,5** | **2 073,9** | **103,1** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 346,0 | 403,5 | 102,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 209,3 | 248,0 | 108,8 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 1 223,2 | 1 422,4 | 102,3 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 554,8 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*




**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*

| | |
|---|---|
| 2022- y. | 2 912,0 |
| 2023- y. | 3 554,8 |



**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 96,9 | 95,7 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,1 | 4,3 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **32,6** | **32,4** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **28,3** | **26,5** |
| sanoat | 17,2 | 20,8 |
| qurilish | 6,6 | 5,7 |
| **xizmatlar** | **43,6** | **41,1** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 8,5 | 8,0 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,1 | 4,9 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 30,0 | 28,2 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

### 2022- yil




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | 32,6% |
| *Sanoat* | 17,2% |
| *Qurilish* | 6,6% |
| *Xizmatlar* | 43,6% |

### 2023- yil




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | 32,4% |
| *Sanoat* | 20,8% |
| *Qurilish* | 5,7% |
| *Xizmatlar* | 41,1% |

***Yalpi qo‘shilgan qiymat***

***Mahsulotlarga sof soliqlar***

2023- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,7% ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,3 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 32,4 %ni, sanoat tarmog‘i 20,8%ni, qurilish 5,7 %ni va xizmatlar sohasi 41,4 %ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2023- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,8 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 1,0 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,7 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 1,3 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 2,3 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari**

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*




2023- yilning yanvar-martida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 102,6% (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 32,4 %), sanoatda – 104,0 % (20,8 %), qurilishda – 100,6 % (5,7 %), xizmatlar sohasida – 103,1 % ni (41,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 102,4 % (8,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,8 % (4,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,3 % dan (28,2 %) iborat bo‘ldi.



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*










2023- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 121,2 % tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 142,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 119,2 % qayd etildi.









# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

| | mlrd.so‘m | ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2022- yil | 2 988,4 | 73,2 |
| 2023- yil | 3 663,6 | 72,8 |



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 3 663,6 mlrd.so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 2 988,4 mlrd.so‘m)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 72,8 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 73,2 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko‘payishi bilan bog‘liq.

